



XALQ DEPUTATLARI NAVBAHOR TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 25-iyun

VII-25-74-5-73-K/26

Navbahor tumani

2026-yilda Navbahor tumani bo'yicha "Alkogol mahsulotlari"ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan "Alkogol mahsulotlari"ni realizatsiya qilish uchun yig'implarning cheklangan stavkalarini oshirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1105-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-387-sonli qarori, tuman iqtisodiyot va moliya bo'limining 2026-yil 18-iyundagi 01-12-230/20-01-38/578-sonli xati, xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasining 2026-yil 17-iyundagi DKQ 03-01/62-26-sonli qarori "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Navbahor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi 387-sonli qarori ijro uchun, tuman hokimining birinchi o'rinbosari M.Jumaboyevning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Navbahor tumani hududida 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'implar stavkalari ilovaga muvofiq ma'qullanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari M.Jumaboyev, tuman Iqtisodiyot va

moliya bo'limi (N.Xotamov), tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Berdiyev) bilan birgalikda mazkur qaror o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Bobonazarov) hamda "Navbahor tongi" gazetasi tahririyati (U.Ochilov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash tuman hokimining birinchi o'rinbosari (M.Jumaboyev)ga, bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi (A.Qaraboyev) zimmasiga yuklansin.

6. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tib kuchga kiradi.

Kengash raisi



**ABDIYEV
TOSHQUL
SHAMSIYEVICH**

Xalq deputatlari Navbahor tumani
Kengashining
2026-yil 25-iyundagi
VII-25-74-5-73-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish
huquqi uchun yig'imlar stavkalari**

T/r	Yig'im turi	Bir oyga (so'mda)	
		O'RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	2026-yil uchun to'lanadigan yig'im miqdori
1	"Alkogol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im	300 000	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan "Alkogol mahsulotlari"ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im	150 000	180 000